



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu bois jamiyatda ushbu masalaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2007.
2. G'oziyev E. Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
4. Craig G. Human Development. New Jersey: Pearson Education, 2005.
5. Bowlby J. Attachment and Loss. New York: Basic Books, 1982.

OILAVIY MUHITNING BOLANING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Murodova Jasmina Oybekovna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Psixologiya ta'lim yo'nalishi 1
-kurs talabasi

Anostatsiya: Ushbu maqolada bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhitning psixologik ahamiyati yoritilgan. Oiladagi tarbiya, ota-onaning munosabati, mehr-muhabbat va psixologik muhitning bola xarakteri, dunyoqarashi hamda ijtimoiylashuviga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, shaxs, oilaviy muhit, tarbiya, bola psixologiyasi, ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish, ota-ona munosabati.

Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, barkamol avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantirishda oila eng muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Insonning ilk dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, xulq-atvori hamda hayotiy qadriyatlari aynan oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu sababli oiladagi psixologik muhitning bola shaxsi rivojlanishiga ta'sirini o'rganish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, unda biologik, ijtimoiy hamda psixologik omillar o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Biroq mazkur omillar orasida oilaviy muhit alohida o'rin egallaydi. Chunki bola hayotining dastlabki bosqichlarida tashqi olamni aynan oila orqali anglaydi, insoniy munosabatlar mohiyatini oiladagi muomala madaniyati asosida idrok etadi. Oiladagi mehr-muhabbat, o'zaro hurmat, e'tibor va sog'lom psixologik muhit bolaning emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, oiladagi nizolar, befarqlik yoki zo'ravonlik holatlari bola ruhiyatida turli psixologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin [1].

Psixologiya fanida bola shaxsining rivojlanishi va oilaning tarbiyaviy ta'siri masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Lev Vygotsky bolaning ijtimoiy muhit orqali rivojlanishini asoslab bergan bo'lsa, Jean Piaget uning intellektual rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Shuningdek, Erik

Erikson shaxs taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlarning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Mazkur nazariyalar oilaning bola psixik taraqqiyotidagi beqiyos o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi [2].

Bugungi globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi hamda zamonaviy hayot tarzining jadallashuvi oiladagi munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa bolalar tarbiyasi, ularning psixologik rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada oilaviy muhitning bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi psixologik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Bola shaxsining shakllanishi jarayoni faqat tug'ma xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, ayniqsa, oilaviy tizimning bevosita ta'siri bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, oila — bu faqatgina biologik bog'liqlik emas, balki shaxsning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi eng birinchi va eng muhim tarbiya makoni hisoblanadi. Oilada shakllangan munosabatlar modeli bolaning kelajakdagi jamiyat bilan munosabatiga bevosita asos bo'lib xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarda Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bolaning imkoniyatlari kattalar va atrofdagilar bilan muloqot orqali kengayishini ko'rsatadi. Bu nazariya asosida aytish mumkinki, agar oilada ota-ona bola bilan faol muloqot qilsa, unga yo'l-yo'riq bersa, uning aqliy va ijtimoiy rivojlanishi tezlashadi. Masalan, ota-onasi bilan muntazam suhbatlashadigan bola o'z fikrini erkin ifoda eta oladi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi [3].

Jean Piaget esa bolaning kognitiv rivojlanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida tahlil qilib, har bir bosqichda tashqi muhit, xususan, oilaviy tajriba muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Masalan, maktabgacha yoshdagi bola atrofni o'yin va taqlid orqali o'rganadi. Agar oilada ijobiy namuna (kitob o'qish, madaniy muomala) mavjud bo'lsa, bola ham shu odatlarni tez o'zlashtiradi.

Shuningdek, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola hayotining ilk bosqichlarida “ishonch vs ishonchsizlik” inqirozi hal qilinadi. Agar ota-ona bolaga mehr va e'tibor bersa, unda dunyoga nisbatan ishonch hissi shakllanadi. Aksincha, beparvolik yoki doimiy jazolash holatlari bolada ichki xavotir va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Masalan, mehr bilan ulg'aygan bola maktab muhitiga tez moslashadi, ijtimoiy faolligi yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari, zamonaviy psixologiyada Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan “ijtimoiy o'rganish nazariyasi” ham oilaning rolini chuqur izohlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bola asosan kuzatish va taqlid orqali o'rganadi. Agar ota-ona o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lsa, bola ham shu xulqni o'zlashtiradi. Masalan, ota-onasi nizolarni tinch yo'l bilan hal qiladigan oilada o'sgan bola ham muammolarni agressiyasiz hal qilishga o'rganadi. Shu bilan birga, oilaviy muhitning salbiy ko'rinishlari ham shaxs rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Doimiy nizolar, hissiy sovuqlik yoki nazoratsizlik bola ruhiyatida agressivlik, tortinchoqlik yoki o'ziga past baho berish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Psixologik kuzatuvlarga ko'ra, bunday muhitda ulg'aygan bolalar ko'pincha ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladilar. Oilaviy muhit bola shaxsining shakllanishida asosiy ijtimoiy-psixologik omil bo'lib, u bolaning kelajakdagi xarakteri, dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rnini

belgilovchi muhim poydevor hisoblanadi. Shu sababli oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda [4].

Bola shaxsining shakllanishi murakkab, ko'p omilli va uzluksiz jarayon bo'lib, uning eng muhim poydevori oilaviy muhit hisoblanadi. Oila — bu nafaqat biologik bog'liqlik tizimi, balki shaxsning ilk ijtimoiy tajribalarini egallaydigan, axloqiy qadriyatlar, emotsional barqarorlik va xulq-atvor me'yorlari shakllanadigan asosiy tarbiya makonidir. Shu bois, oilaviy muhitning bola rivojlanishidagi o'rni psixologiya fanida doimo dolzarb va fundamental muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sog'lom oilaviy muhit — bu faqat moddiy ta'minot emas, balki eng avvalo, ota-ona va bola o'rtasidagi ishonch, hurmat, mehr-muhabbat va ochiq muloqotga asoslangan psixologik muvozanatdir. Bunday muhitda ulg'ayayotgan bola o'zini xavfsiz his qiladi, o'ziga ishonchi ortadi, tashqi olamga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini osonroq o'tadi.

Umuman olganda, oilaviy muhit — bu shaxs kamolotining ilk va eng muhim maktabi bo'lib, u bolaning butun hayot yo'nalishini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham har bir sog'lom jamiyatning poydevori mustahkam, ma'naviy yetuk va psixologik jihatdan barqaror oilalardan iborat bo'lishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Vygotsky L. S. Myshlenie i rech (Thinking and Speech). Moscow: 1934.
2. Erikson E. H. Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company, 1950.
3. Aliqulov S.T. Umumta'lim va umumkasbiy fanlar o'rtasida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish mexanizmlari. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. Buxara, 2020 g. 501-503 s.
4. Karimova V. M. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDA SUITSIDAL HOLATLARNING OLDINI OLISHDA OILAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Yaxshiboyev Sardor Bo'riboy o'g'li
O'zMUJf Psixologiya magistranti
sardoryaxshiboyev72@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smir yoshlar orasida suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga oilaviy muhit, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlikning ta'siri chuqur tahlil qilinadi. O'smirlarning tajovuzkorligi nafaqat individual omillar, balki oilaviy va ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tajovuzkorlikni